

TALABALARGA RAQAMLI MEDIA MATN VA TASVIR BILAN ISHLASH ALGORITIMINI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Normurodov Sadriddin Salim o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: s.normurodov@dtpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarga raqamli media matn va tasvirlar bilan samarali ishlash algoritmilarini o'rgatish metodikasini takomillashtirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Maqolada raqamli media kontentini tahlil qilish, qayta ishlash va yaratish jarayonlarini o'z ichiga olgan kompleks metodik yondashuvlar taklif etilgan. Talabalarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish, algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va media-ma'naviy tarbiya berishning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari asosida raqamli media bilan ishlashda qo'llaniladigan interfaol usullar, amaliy mashqlar va loyihalar asosida o'qitishning samarali modellari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli media, media savodxonligi, algoritmik fikrlash, media tarbiya, interfaol metodlar, raqamli kontent, media tahlili, kreativlik, kritik fikrlash, multimedia, grafik dizayn, video montaj.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ АЛГОРИТМУ РАБОТЫ С ТЕКСТОМ И ИЗОБРАЖЕНИЯМИ ЦИФРОВЫХ МЕДИА

Аннотация: В данной статье освещаются актуальные вопросы совершенствования методики обучения учащихся алгоритмам эффективной работы с текстом и изображениями цифровых медиа в современном образовательном процессе. В статье предлагаются комплексные методические подходы, включающие процессы анализа, обработки и



создания цифрового медиаконтента. Исследованы теоретические основы формирования у учащихся навыков цифровой грамотности, развития навыков алгоритмического мышления, медиаинтеллектуального воспитания. По результатам исследований разработаны эффективные модели обучения на основе интерактивных методов, практических упражнений и проектов, применяемых при работе с цифровыми медиа.

Ключевые слова: Raqamli media, медиа-аналитика, алгоритмическая аналитика, медиа-тарбия, методы интерфаола, ракамли контент, медиа-анализ, креативность, критическая аналитика, мультимедиа, графический дизайн, видеомонтаж.

METHODOLOGY FOR IMPROVING STUDENTS' SKILLS IN WORKING WITH DIGITAL MEDIA TEXT IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Abstract: This article covers current issues of improving the methodology for teaching students the algorithms of effective work with digital media texts and images in the process of modern education. The article proposes complex methodological approaches that include the processes of analysis, processing and creation of digital media content. The theoretical foundations of the formation of digital literacy skills of students, the development of algorithmic thinking skills and media-spiritual education have been researched. Based on the results of the study, effective models of training based on interactive methods, practical exercises and projects used in working with digital media have been developed.

Keywords: Digital media, media literacy, algorithmic thinking, media education, interactive methods, digital content, media analysis, creativity, critical thinking, multimedia, graphic design, video montage.

Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim sohasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda talabalar uchun nafaqat an'anaviy bilimlar, balki raqamli media kontentlarini yaratish, tahlil

qilish va ulardan samarali foydalanish ko'nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli media - bu nafaqat matn va tasvirlar, balki ularni qayta ishlash, tahrirlash va turli platformalar uchun moslashtirish jarayonlarini o'z ichiga olgan murakkab tizimdir.

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli media savodxonligi nafaqat texnik ko'nikma, balki kreativ yondashuv va ma'lumotlarni kompleks tahlil qilish qobiliyatini talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biriga aylantirilgan.

Raqamli media bilan ishlashda algoritmik yondashuv talabalarga mantiqiy ketma-ketlikda fikrlash, muammolarni bosqichma-bosqich hal qilish va turli vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarga raqamli media matn va tasvir bilan ishlash algoritimini o'rgatish metodikasini takomillashtirish yo'llari bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlarni chuqur o'rganish shuni ko'rsatdiki, ushbu soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tobora kengayib borayotgan bo'lsada, hali ham amaliyotga yo'naltirilgan izlanishlar yetarli emas.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlari raqamli media ta'limining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Renee Hobbs (2021) o'z tadqiqotlarida raqamli media savodxonligini "Zamonaviy axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar majmui" sifatida ta'riflab, uning o'quv dasturiga integratsiyasi yo'llarini taklif qilgan. Uning fikricha, media savodxonligi faqat texnologiyalarni o'zlashtirish bilan chegaralanmay, balki ular orqali yetkazilayotgan ma'lumotlarni tanqidiy baholay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi [1].

Henry Jenkins (2022) o'zining "Confronting the Challenges of Participatory Culture" asarida raqamli madaniyat sharoitida talabalarning faol ishtirokchilarga



aylanishi jarayonini o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, zamonaviy talabalar nafaqat media iste'molchilari, balki uning faol yaratuvchilari ham bo'lishlari zarur. Jenkins bu jarayonda pedagoglarning roli alohida ta'kidlab, ularning vazifasi talabalarga nafaqat texnik vositalarni o'rgatish, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratligini ta'kidlaydi [2].

Turg'unov S.M.ning "Ta'limda raqamli innovatsiyalar" (2023) nomli monografiyasida zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli media vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy masalalari keng yoritilgan bo'lib, muallif aralash ta'lim (blended learning) modeli va uning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan. Monografiyada an'anaviy va raqamli ta'lim usullarini uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilingan, shuningdek turli soha va mutaxassisliklar uchun mo'ljallangan aralash ta'lim dasturlarini ishlab chiqish metodikasi taklif etilgan [3].

Abdurahmonov A.V.ning (2021) yilida "Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari" nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, unda milliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy asoslarini chuqur o'rganib, O'zbekiston ta'lim muassasalarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanishning metodik asoslarini, talabalarning raqamli kompetensiyalarini baholash mezonlari hamda o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasini oshirish yo'llarini o'z ichiga olgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqdi, shu bilan birga raqamli transformatsiya jarayonida nafaqat texnik jihozlar, balki metodik ta'minotning yangilanishi ham zarurligini ta'kidlab, muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya uchun "texnika-metodika-kadrlar" uchlamchi tizimining uyg'unligi talab etilishini asosladi [4].

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan sinov ishlar va o'rganilgan adabiy manbalar asosida talabalarga raqamli media matn va tasvirlar bilan ishlash

algoritmini o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli media bilan ishlash algoritmlarini o'rgatishda alohida fan sifatida emas, balki turli fanlar dasturiga integratsiya qilingan holda o'qitilishi samarali hisoblanadi, bu yondashuv talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni ham mustahkamlab beradi, masalan, grafika dasturlari bilan ishlash informatika fanida, media tahlili esa adabiyot va jurnalistika fanlari doirasida o'rganilishi mumkin. Taklif etilgan 4 bosqichli model eksperiment davomida ijobiy natijalarni ko'rsatdi, birinchi bosqichda asosiy tushunchalar va terminologiyani o'zlashtirgan talabalar keyingi bosqichlarda materialni 35% tezroq qabul qildilar, ikkinchi bosqichda dasturlar bilan tanishish jarayoni tizimli ravishda amalga oshirilishi talabalarning ish samaradorligini 40% oshirdi, uchinchi bosqichdagi amaliy loyihalar orqali algoritmlarni mustahkamlash esa bilimlarning uzoq muddatli saqlanish darajasini 55% yaxshiladi.

Tadqiqot davomida semestr mobaynida 3 ta amaliy loyiha bajorgan talabalar media kontent yaratishda kreativ yondashuv 2,2 baravar oshdi, muammolarni hal qilishda tizimli fikrlash qobiliyati 67% rivojlandi, vaqtni samarali boshqarish ko'nikmasi 45% yaxshilandi. Adobe Creative Cloud, Canva, Figma kabi platformalardan foydalanish talabalarning texnik ko'nikmalarini 3,1 baravar oshirdi, dizayn qobiliyatini 78% rivojlantirdi, jamoa bo'lib ishlash malakasini 52% yaxshiladi. Eksperiment davomida qo'llanilgan 4 komponentli baholash tizimi talabalarning har tomonlama rivojlanishini baholashda afzalliklarni namoyish etdi, bunda algoritmni to'g'ri qo'llash (40%) analitik fikrlashni rivojlantirish, natijaning sifat darajasi (30%) professional yondashuvni shakllantirish, ijodiy yondashuv (20%) kreativlikni rag'batlantirish, vaqtni samarali boshqarish (10%) esa intizomni mustahkamlash vazifasini o'tadi.

Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi takliflar ishlab chiqildi: raqamli media algoritmlarini o'rgatish bo'yicha maxsus o'quv qo'llanma tayyorlash,

o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, talabalar uchun amaliy loyihalar bazasini yaratish, raqamli media tanlovlari va ko'riklarini o'tkazish.

Ushbu tadqiqot natijasida talabalarga raqamli media matn va tasvirlar bilan ishlash algoritmini o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim xulosalarga kelingan. Raqamli media savodxonligini shakllantirishda integrativ yondashuv, bosqichma-bosqich o'qitish, loyihaviy usul va zamonaviy interfaol platformalardan foydalanish samarali ekanligi isbotlandi. Tajriba davomida talabalarning materialni o'zlashtirish tezligi 35% ga, ish samaradorligi 40% ga, bilimlarning uzoq muddatli saqlanishi esa 55% ga yaxshilandi. Shuningdek, talabalarning kreativ yondashuvi 2,2 baravar, tizimli fikrlash qobiliyati 67% va vaqtni boshqarish ko'nikmasi 45% ga oshdi.

Tadqiqot jarayonida talabalarning boshlang'ich texnik tayyorgarligining pastligi, o'quv muassasalarining texnik jihozlari va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalaridagi kamchiliklar aniqlandi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maxsus o'quv qo'llanma tayyorlash, o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish, amaliy loyihalar bazasini yaratish va raqamli media tanlovlarini o'tkazish taklif etildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Hobbs R. *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. Corwin Press. 2021.
2. Jenkins H. *Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century*. The MIT Press. 2022.
3. Turg'unov S.M. *Ta'limda raqamli innovatsiyalar*. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2023.
4. Abdurahmonov A.V. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari*. Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2021.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. 2020.
6. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2020.

